



# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

4(6)  
2023





ISSN 2181-3787  
E-ISSN 2181-3795

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
международный научно-методический журнал

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
international scientific-methodical journal

**№4(6) 2023**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

## MUNDARIJA

<b>07.00.00 - TARIX .....</b>	<b>6</b>
<b>Мубинов Мухаммадали Ақобирович.</b> Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами.....	6
<b>13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI .....</b>	<b>13</b>
<b>Alimardonov Zohid Shukurillaevich.</b> Kursantlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish samarali muloqot sharti sifatida.....	13
<b>Axmedov Axat Axrorovich.</b> Fizika darslarida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini mobil dasturlar orqali shakllantirish .....	19
<b>Niyozmetoza Roza Hasanovna, Qoraboyev Husniddin Kamolovich.</b> Matn mazmunini tushunishga yordam beruvchi ish turlari .....	23
<b>Muxitdinova Xadicha Sabirovna.</b> O'zbek tilini o'qitishda mashq va topshiriqlar bilan bosqichli ishlashni tashkil etish .....	27
<b>Jalolova Pokiza Muzaffarovna.</b> Talabalarning texnik bilimlarini rivojlantirishda dasturiy ishlanmalardan foydalanish.....	36
<b>Eshboyeva Surayyo Qahramon qizi.</b> Tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlikning talqini (1-4-sinf misolida).....	41
<b>Meliqo'ziyev Dadaqo'zi Jo'raqo'ziyevich.</b> O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini, bilimni baholashning o'ziga xos xususiyatlari .....	46
<b>Husenova Aziza Sharipovna.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari.....	51
<b>Shadiyeva Nigora Sharipovna.</b> Dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish asosida bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati.....	57
<b>Quliyeva Shahnoza Halimovna.</b> Texnologik ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda debat metodini qo'llash .....	62
<b>Mavluda Muhamedovna Qosimova.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishda o'rta arifmetik qiymatni topishga doir masalalarning o'rni .....	66
<b>Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li.</b> Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarini o'qitishda mustaqil ta'limning roli .....	71
<b>Almardanov Jo'rabek Bobonazarovich.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari.....	74
<b>Abduqodirov Jasur Baxtiyor o'g'li.</b> Optikaga doir nostandart masalalarni yechishning metodik komponentlarini shakllantirish .....	78
<b>Jabborova Saodat Zoirovna.</b> Maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalashning shakl, usul va yo'llari.....	82
<b>Axmedov Aminjon Amrullayevich.</b> Talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda qadriyat kategoriyalari mazmuni .....	87
<b>Hamroyeva Sevara Nasriddinovna.</b> STEM ta'limi orqali talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda demonstratsion tajribaning o'rni .....	92
<b>Eshchanov R.A., Shirinova D.O., Sobirov J.</b> 7-sinf kimyo darsida kislorod mavzusini o'qitishda barqaror taraqqiyot ta'limi tushunchalarining ahamiyati .....	95
<b>Egambergan Madraximovich Xudoynazarov.</b> Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatishning didaktik tamoyillari.....	100
<b>Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi.</b> Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash jarayoni pedagogik-psixologik talqini.....	104
<b>Tojiyev Husniddin Baxtiyorovich.</b> Kichik yoshli o'quvchilarning informatika darslarida axborotni tuzilmalashtirish mahoratlarini shakllantirishning metodik va didaktik aspektlari ....	108
<b>Abdusamatov Alisher Sobirovich.</b> O'qituvchi semiotik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida noverbal semiotikani o'zlashtirish.....	111

**Quliyeva Shahnoza Halimovna**

Buxoro davlat universiteti,  
geliyofizika, qayta tiklanuvchi energiya  
manbalari va elektronika kafedrası dotsenti

---

## TEKNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA DEBAT METODINI QO'LLASH

---

***Annotatsiya.** Maqolada texnologik ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda debat metodidan foydalanish mazmuni keltirilgan. Bugungi kunda talaba shaxsini shakllantirishda o'quv jarayonida interfaol metodlarni qo'llash alohida ahamiyatga ega. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis kadrlarni sifatli tayyorlashda, nazariy bilimlar berishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. Ayniqsa, texnologik ta'lim yo'nalishida talabalarga nazariy va amaliy mashg'ulotlarni olib borishda innovatsion ta'lim texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.*

***Kalit so'zlar:** shaxs, texnologiya, interfaol metodlar, debat metodi, rivojlantiruvchi texnologiyalar, ijodkorlik, hamkorlik.*

## ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА ДЕБАТА В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В ОБЛАСТИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Кулиева Шахноза Халимовна,**

Бухарский государственный университет,  
доцент кафедры "Гелиофизика, возобновляемые источники  
энергии и электроника"

***Абстракт.** В статье представлено содержание использования метода дебатов при преподавании профильных предметов в сфере технологического образования. Сегодня использование интерактивных методов в образовательном процессе приобретает особое значение в формировании личности школьника. В высших учебных заведениях необходимо развивать способности самостоятельного мышления и творчества при качественной подготовке специалистов, передаче теоретических знаний и формировании практических навыков. Инновационные образовательные технологии имеют особое значение в обеспечении теоретической и практической подготовки студентов в сфере технологического образования.*

***Ключевые слова:** личность, технологии, интерактивные методы, метод дебатов, развивающие технологии, творчество, сотрудничество.*

## APPLICATION OF THE DEBATE METHOD IN TEACHING SPECIAL SUBJECTS IN THE FIELD OF TECHNOLOGICAL EDUCATION

**Kuliyeva Shahnoza Halimovna**

Bukhara State University,  
associate professor of the department  
"Solar physics, renewable energy and electronics"

***Abstract.** The article presents the content of using the debate method when teaching specialized subjects in the field of technological education. Today, the use of interactive methods in the educational process is of particular importance in the formation of the student's personality. In higher education institutions it is necessary to develop the abilities of independent thinking and creativity with high-quality training of specialists, transfer of theoretical knowledge and the*

*formation of practical skills. Innovative educational technologies are of particular importance in providing theoretical and practical training to students in the field of technological education.*

**Key words:** *personality, technology, interactive methods, debate method, developing technologies, creativity, cooperation.*

Oliy ta'lim muassasalarida har bir shaxsni jamiyat ehtiyojiga javob beruvchi kasb egasi qilib tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratilganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda o'quv jarayoniga innovasion ta'lim metodlarini qo'llashga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda ijodkorlik faoliyatiga tayyorlash ishlarining samarali yo'lga qo'yilishi ta'lim islohotlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim omil vazifasini o'taydi.

Demokratik tamoyillar asosida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rniga ega bo'lib borayotgan mamlakatimizda ta'limning barcha tizimlari qatori oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar shaxsi shakllanishida erkinlikni ta'minlash omili sifatida qaralmoqda.

Innovasion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

N.A.Muslimov kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishda motivasion sifatlar, intellektual salohiyat, hissiy, irodaviy sifatlar, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish va o'z-o'zini boshqarish layoqatlarini tarkib toptirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim - kasb ta'limi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko'taruvchi yaxlit tizimning tarkibiy qismi, oliy ta'lim muassasalarida kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash jarayonining pedagogik shart-sharoitlari hamda vositalarini aniqlashda asos bo'ladi deb qayd etgan.

Chet el olimlaridan G.Spenser "Ta'limning buyuk maqsadi bilim berish emas, balki hattiharakatlarga o'rgatishdir" – deb bejizga aytmagan.

Oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish hamda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, "Texnologiya ta'limi metodikasi" fanida ko'proq dars jarayonida interfaol metodlar ya'ni "Debat" metodi qo'llansa talabalar umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya fanidan dars berish mahoratiga va kompetensiyalariga ega bo'ladilar.

"Debat" (fr. "debattere" so'zidan olingan bulib, "debats" – "bahslashmoq") metodi mashg'ulotlarda, shuningdek, turli yig'ilishlarda biror mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

"Debatlar" metodi Qadimgi Gresiyada yaratilgan bo'lib, ular demokratiyaning muhim elementi sifatida namoyon bo'lgan. Afina fuqarolari taqdim etilayotgan qonunlarning afzal tomonlari va kamchiliklari haqida tortishib, masalani yaxshi tushunish uchun uni turli tomondan tahlil qilishar, shu bilan birga, tahlil qilib bahs qilishga o'rganar edilar. O'rta asrlarda Yevropa ta'lim tizimi tarkibida nutq so'zlash mahorati va debatlar darslari mavjud bo'lgan.

Hozirgi vaqtda debatlar butun dunyo maktablarida va universitetlarida o'tkazilmokda. Debatni o'tkazishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- 1-debatlar ko'p narsaga o'rgatadi,
- 2-chin dillik va vijdonlilik majburiyati,
- 3- hurmat va ehtirom ko'rsatish.

Debatda ishtirok etish natijasida ta'lim oluvchilarda muammoni aniqlash va ajratish qobiliyati, dalillar va fikrlarni aniqlash mahorati, tanqidiy fikr yuritish, muhim bo'lgan ma'lumotni muhim bo'lmagan ma'lumotdan ajratish, sabab va uning bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlariga baho berish, xulosa chiqarish, muammolarni ajratish va samarali yechim topish malakalari,

64 o'zining fikr yuritishiga, tafakkur jarayoniga baho berish ko'nikmalari, jamoada ishlash qobiliyati, nutq so'zlash madaniyati shakllanadi. O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalariga tayanib, biz o'quv jarayonida debat o'tkazish tartibini ishlab chiqdik.

**“Debat”ni o'tkazish tartibi**


<b>Debatning maqsad va vazifalari</b>	Debatlar qarama-qarshi nuqtai nazarlarning to'qnashuvidir. Uning maqsadi - ishtirokchilarda intellektual, mantiqiy fikrlash malakasini shakllangirish, o'zgacha fikrni inobatga olmasdan xulosa chiqarish noto'g'ri qaror qabul qilishga olib kelishi mumkinligini isbotlashdan iborat. O'yin sifatida debatlarida tanqidiy fikr yuritish, tanqidiy tafakkur, tadqiqiy va tashkiliy malakalar, eshitish, yozma qayd qilish malakalari shakllanadi.
<b>Debatni tayyorlash va o'tkazish tartibi</b>	1. Debat ishtirokchilari uchun qiziqish uyg'otuvchi mavzu yoki g'oya aniqlangach, debatning mavzusi tasdiqlovchi ma'nodagi fikr bilan ifodalanishi kerak. Masalan: “Texnologiya fanida har bir o'quvchi konstruksiyalash va modellashtirish asoslarini o'rganishi kerak” yoki “Texnologiya fanida moddiy texnik baza yetarli bo'lishi shart” kabi. Debatning mavzusi dolzarb, kasbga yo'naltiruvchi, qadr-qimmat mavzularida bo'lishi mumkin. 2. Debatda ikkita jamoa ishtirok etadi. Birinchi jamoa -tasdiqlovchi tomon sifatida, ikkinchi jamoa - qarshi tomon sifatida. ishtirok etuvchilardan tasdiqlovchi tomonning so'zga chiquvchilari, ya'ni spikerlarini T1, T2, T3; qarshi tomonning so'zga chiquvchilari, ya'ni spikerlarini K1, K2, K3deb shartli ravishda belgilash mumkin.
<b>Debatning o'tkazilishi</b>	Debat metodini qo'llashda eng asosiy ish ishtirokchilarni tanlab olish bo'lib, bunda har bir ishtirokchini debat jarayoni bilim orttirishga mo'ljallangan dastur ekanligiga ishonitirish lozim; ma'muriyat tomonidan ko'mak olish, ya'ni tadbirlarni o'tkazish jarayonida rahbariyatning ishtirok etishini ta'minlash kerak. Shu bilan birga, jamoa ishini to'g'ri tashkil qilish va jamoa tartibini saqlab turish, jamoaning har bir a'zosi o'z vazifasini to'liq tushunishiga erishish lozim.
<b>Debatning mazmuni</b>	Debatlar fikrni isbotlashga asoslangan bo'lib, ishtirokchilardan auditoriya e'tiborini jalb qilish uchun kutilmagan statistik ma'lumot yoki misollar keltirish orkali e'tibor qozonish talab etiladi.
<b>Debatning davomiyligi</b>	Debatda mavzu oldindan e'lon qilinishi va mavzuni yoritish uchun vaqt hisobga olingan bo'lishi lozim. O'quv jarayonida tashkil etiladigan debatlarining davomiyligi 1 soatdan 3 soatgacha belgilanishi mumkin. Undan ortiq vaqt davom etgan debat kutilgan natijalarni bermaydi.
<b>Nazorat shakli va baholash</b>	Hakamlar har ikkila jamoaning keltirgan faktlarini tinglagach, hakamlik jadvalini to'ldiradilar va debat natijasida qaysi jamoaga afzallik berilganligi haqidagi hakamlar qarorini yozib qo'yadilar.

Hozirda debatlarining quyidagi shakllari amaliyotda turli jarayonlarda qo'llaniladi:

**Amerikacha munozara (debat).** Bunday tarzda dars o'tishda ikki nafar talaba belgilangan qat'iy tartib bo'yicha, munozaraga raislik qiluvchining rahbarligi ostida berilgan savol yoki muammo bo'yicha munozara olib boradilar. Ularning bildirgan fikrlarini hakamlar jamoasi baholaydi. Hakamlar jamoasining tarkibi talabalardan belgilanadi.

**Inglizcha munozara (debat).** Munozaraning bu shaklida muhokama qilinayotgan muammo yechimiga yetkaziladi.

**Ochiq munozara (debat).** Qo'yilgan muammoni belgilangan qoida bo'yicha muhokama qililib, uning debat natijasidagi yechimini qabul qilish yoki qilmaslikni mashg'ulot rahbariga, agar debat yig'ilishda o'tkazilgan bo'lsa, uning yuqori bo'g'iniga, rahbariyatiga topshirish bilan yakunlanadi.

**O'quv mashg'ulotlarida debat metodini qo'llash sxemasi**

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarida ijodkorlik, konstruksiyalash, modellashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashda "Texnologiya ta'limi metodikasi" fanidan amaliy mashg'ulotlar "Debat" metodi asosida muammolar o'rganiladi. Bu esa, tayyorlanayotgan mutaxassislarining mustaqilligini, faolligini, o'zaro fikr almashishini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, mutaxassislik fanlarini o'qitishning uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, oliy ta'lim davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilmoqda.

O'tkazilgan mashg'ulotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mashg'ulot davomidagi interfaol metodlar asosida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatini fikr yuritishining mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash va xulosa chiqarishga yo'naltiradi.

Texnologik ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar ta'lim oluvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassislarga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Авлаев О.У., Жураева С.Н., Мирзаева С.Р. Таълим методлари. Ўқув-услугий кўлланма. Тошкент: - "Наврўз" нашриёти. 2017. -208 б.
2. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. – 120 b.
3. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., Abduraxmonov Sh., Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t.
4. Shakhnoza K., Makhbuba K. [Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process](#). International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
5. Kuliyeva Sh. [Improving teaching aids in the training of future technology teachers](#). International Journal of Early Childhood 14 (03), 2022.
6. [El papel de las tecnologías pedagógicas modernas en la formación de la competencia comunicativa de los estudiantes](#). Halimovna K.S., Nurilloevna M.O., Radzhabovna K.D., Shavkatovna R.G. Religacion. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades 4 (15), 261-266.